


O'zbekiston va Germaniya: respublikamiz florasini uchun raqamli gerbariy yaratish bo'yicha seminar bo'lib o'tdi

2021-yil 23-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti va Germaniyaning Greifswald universiteti qoshidagi Botanika va landshaftli ekologiya instituti, hamda Zukkov nomidagi tabiatni muhofaza qilish xalqaro jamg'armasi hamkorligidagi "O'simlik resurslaridan barqaror foydalanish: Markaziy Osiyo virtual florasini" nomli loyihasining seminari bo'lib o'tdi.



Ushbu loyiha doirasida shu kungacha juda katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi, masalan: "O'zbekiston virtual florasini" veb-interfeysi ishlab chiqildi va O'zbekiston florasining zamonaviy ro'yxati tuzildi. Hozirgi vaqtda tizim taxminan 5700 ta namuna va 1000 ta skanerlangan gerbariy namunalarning yorliq ma'lumotlarini import qildi. Nemis botanik olimlari bilan hamkorlikda 2 marta ekspeditsiya amalga oshirildi. Botanika instituti tadqiqotchilaridan biri Greifswald universitetida amaliyot o'tab keldi. 2019-yilda ushbu universitetda Botanika institutining 4 nafar xodimi ishtirokida qisqa muddatli o'quv seminari o'tkazildi. Mazkur loyiha doirasida institutning moddiy-texnik bazasi yaxshilandi. Loyiha hisobidan Botanika instituti uchun "Lada Pick-up" rusumli avtomashina, server va dala jihozlari xarid qilindi.

Umid qilamizki, bu loyiha botanika ma'lumotlarini, ayniqsa, Markaziy Osiyo florasini raqamlashtirishda muhim qadam bo'ladi. Botanika instituti kelgusida ushbu loyihani ishlab chiqishni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi.